

ISLOMIY MOLIYA QARZGA ASOSLANGAN TIZIMLARGA MUQOBILDIR

Inoyatov Mardonbek
*Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti, o'qituvchi*

Dunyoda aksar aholisi musulmon davlatlar juda ko'p. Bu davlatlarda islom qonunchiligidan faqatgina namoz, haj, janoza va nikoh kabi ibodatlar saqlanib qolgan desak xato qilgan bo'lamiz. Balki, ko'pchilik davlatlar islom moliyasiga ham e'tiborini qaratmoqda va har bir musulmon kishi ham o'z davlatida islom banklari bo'lishini xohlaydi. Diniy ibodat sifatida ado etiladigan zakot, ushr, fitr sadaqasi singari majburiyatlarning zamonaviy soliq tizimi bilan qay tarzda uyg'unlashishi mumkinligi ayrim musulmon mamlakatlari misolida yaqqol ko'rinib turibdi. So'ngi yillarda Islomiy bank degan tushuncha bizga begona atama emas. Chunki turli mamlakatlarda, hattoki aksariyat aholisi islom diniga mansub bo'lmagan davlatlarda ham, jumladan AQSh va Buyuk Britaniyada, ushbu moliyaviy atama an'anaviy bank xizmatlari kabi barqaror rivojlanmoqda. Shuning uchun ham islom bankchiligini o'rganish global iqtisodiyotda dolzarb mavzuga aylanib bormoqda.

Zamonaviy davrning birinchi islomiy moliya institutlari 1960-yillarda yaratildi. Misrda kichik foizsiz omonat banki 1963 yilda tashkil etildi, va keyingi uch yil ichida boshqa joylarda yana sakkizta filial ochdi. 1967 yilda ularning hammasi yopilgan edi yoki ehtimol siyosiy sabablarga ko'ra davlat banklari bilan birlashgan edi. Shuningdek, 1963 yilda Malayziyada Hajga pul yig'moqchi bo'lgan musulmonlar uchun ziyoratchilar jamg'armasi (Tabung Hoji) tashkil etilgan.

Islomiy moliya ulkan sanoatga aylandi, uning umumiy qiymati 2 trillion dollardan ortiq, mingdan ortiq Islom moliya institutlari (IMI) 80 dan ortiq mamlakatlarda mavjud.

Islomiy moliya ko'pincha markaziy xususiyat bilan belgilanadi: foiz evaziga kredit berishning taqiqlanishi. Bu moliyaviy tizim sudxo'rlikni qoralashga olib keladi.

Islom dunyoning barcha sivilizatsiyalashgan jamiyatlarida deyarli umumiy bo'lgan axloqiy me'yorni ham belgilab bergan. Birinchidan, Islomiy moliyaning tuzilishi qarzdand olingan har qanday daromadni (ribo) taqiqlash va daromadning qonuniyligi atrofida aylanadi. Ribo - qarzdordan mukofot sifatida olinadigan o'sishdir. Bu pulni pulga almashtirish yoki to'lovni kechiktirish hisobiga ssuda/qarzlarni sotish bo'yicha kelishilgan narxga qo'shish bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha daromadni anglatadi. Iqtisodiyotda nomutanosiblik keltirib chiqaradiganligi sababli shariat buni man qilgan. Chunki foizlarni to'lash bilan bog'liq barcha operatsiyalar qat'iyan man etiladi.

Ikkinchidan- G'arar (noaniqlik). Islom ahloqi tamoyillariga amal qilgan holda, islomiy moliya G'arar dan (noaniqlikdan) saqlaydi. G'arar shartnomaning yakuniy natijalari, obyektning tabiati va spetsifikatsiyasi yoki tomonlarning

huquq va majburiyatlari to'g'risida mutlaq xavf yoki noaniqlik sharoitida shartnoma tuzishni anglatadi.

Islom Moliya Institutlari (IMI) natijalar yashirin bo'lgan har qanday savdo-sotiq bilan shug'ullanmasligi kerak, bu esa har qanday haqiqiy biznes bitimini bajarish uchun zarurdir. An'anaviy moliya institutlari va sug'urta kompaniyalarining fyuchers va opsiyon bozorlaridagi zamonaviy amaliyotlari Gharar, foiz, qimor va hokazo unsurlari tufayli shariatga mos kelmaydi. Joriy fond bozorlari oldi-sotdisi bu elementlardan tozalansa, shariatga muvofiq fond bozori deb ataladi.

Islom moliya institutlarining asosiy vazifalari esa quyidagilardan iboratdir:

- aksionerlik kapitaliga vositalarni sarmoyalashtirish;
- ishlab chiqarish korxonalari va loyihalariga qarzlar berish;
- a'zo davlatlarga iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi maqsadida boshqa shakllarda moliyaviy yordam berish;
- aniq maqsadlar uchun tuziladigan maxsus fondlarni boshqarish;
- Nomusulmon davlatlardagi musulmon jamoalariga yordam fondi;
- moliyalashtirish uslublari vositasida moliyaviy resurslar yo'naltirish va depozitlarini qabul qilish;
- musulmon davlatlarning rivojlanishi bo'yicha tashkilot a'zolarini o'qitish;
- foizsiz kreditlar berish.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha amallarda Islom moliya institutlari (IMI) hech qanday foizli qarzlarisiz iste'molchilarga xizmat ko'rsatadi. Ushbu institutlarning birdan-bir maqsadi esa a'zo mamlakatlarning, shariatga asoslangan musulmon jamoalarining, iqtisodiy rivojlantirish va ijtimoiy taraqqiyotiga ta'sir o'tkazishdan iboratdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, so'nggi o'n yillikda Islom moliyasi butun dunyoda, shu jumladan, musulmon bo'lmagan mamlakatlarda ham rivojlanishi moliyalashtirishning samarali vositasi ekanligini tasdiqladi.

XULQ ATVOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA KORPORATIV MADANIYATNING HOZIRGI VA OLDINGI TENDENSIYALARI

Omanova Nargiza Rustam qizi

International school of finance and technology

Fundamental iqtisodiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Korporativ madaniyat tashkilotning ichki muhitini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri bo'lib, uning samaradorligi va barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Robert Quinn va Kim Kameron korporativ madaniyatlarni tasniflash uchun ishlatiladigan to'rtta quti madaniyati modelini yaratdilar. Uning vertikal o'qi tashkilotning barqarorlik yoki moslashuvchanlikka ko'proq e'tibor qaratishini, gorizontaal o'qi esa tashkilotning ichki boshqaruv va integratsiyasini